



## BADIIY MATNDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING USLUBIY VAZIFASI

**Isayeva Rayxona Xushnodbek qizi,**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a fakulteti O'zbek tili va adabiyoti*

*bakalavr ta'lim yo'nalishi 1 -bosqich talabasi*

*E-mail: [isayevarayhona07@gmail.com](mailto:isayevarayhona07@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy matnda qo'llaniladigan onomastik birliklarning uslubiy vazifalari tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan antroponim, toponim, zoonim va boshqa nom birliklarining obraz yaratish, milliy koloritni ifodalash, badiiy-estetik ta'sir kuchini oshirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, yozuvchi uslubini shakllantirishda onomastik birliklarning ahamiyati misollar asosida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** onomastika, badiiy matn, antroponim, toponim, uslub, obraz, lingvopoetika, badiiy tasvir

**Аннотация.** В данной статье анализируются стилистические функции ономастических единиц, используемых в художественном тексте. Освещается роль антропонимов, топонимов, зоонимов и других номинативных единиц, встречающихся в произведении, в создании образов, выражении национального колорита и усилении художественно-эстетического воздействия. Также на примерах показано значение ономастических единиц в формировании авторского стиля.

**Ключевые слова:** ономастика, художественный текст, антропоним, топоним, стиль, образ, лингвопоэтика, художественное изображение.

**Abstract.** This article analyzes the stylistic functions of onomastic units used in literary texts. It highlights the role of anthroponyms, toponyms, zoonyms, and other naming units found in a work in creating characters, expressing national color, and enhancing artistic and aesthetic impact. The article also demonstrates, through examples, the importance of onomastic units in shaping an author's individual style.

**Keywords:** onomastics, literary text, anthroponym, toponym, style, character, linguopoetics, artistic representation.

**Kirish.** Tilning badiiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda onomastik birliklar muhim vositalardan biri hisoblanadi. Badiiy asarda qo'llangan ism-shariflar, joy nomlari, laqablar va boshqa nom birliklari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishga ham xizmat qiladi. Shu sababli onomastik birliklar lingvopoetik va uslubiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Badiiy matnda har bir nom muayyan estetik maqsad asosida tanlanadi. Yozuvchi qahramon xarakterini ochish, voqea sodir bo'layotgan muhitni tasvirlash yoki milliy ruhni ifodalash uchun turli onomastik vositalardan foydalanadi.



Onomastik birliklarning badiiy matnda o‘rni, funksional-stilistik xususiyatlari esa hanuz mukammal tavsifini topmagan. Bu borada onomastik birliklarning uslubiy xususiyatlari haqida aytilgan ayrim fikrlar mavjudligini ta’kidlash mumkin.<sup>1</sup>

Tilshunoslikda onomastik birliklar onim deb nomlanadi. E.Begmatov onimlarni “atoqli otning ko‘rinishi va tiplari” deb izohlaydi.<sup>2</sup>

„Muayyan til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlar hamda matnlar presedent birliklar“<sup>3</sup> sifatida olingan. Nikonovning «Har qanday ism uch maydon kesishmasida mavjud: til, jamiyat va madaniyat. Ismlarni faqat lingvistik jihatdan o‘rganish to‘liq emas; ular ijtimoiy va madaniy kontekstda ko‘rib chiqilishi kerak»<sup>4</sup> degan fikrni keltirgan.

Onomastik birliklarning uslubiy vazifalari

#### 1. Obraz yaratish vazifasi

Badiiy asarda qahramon nomi uning xarakteri va ichki dunyosini ifodalashi mumkin. Masalan, “Otabek”, “Kumush”, “Zaynab” kabi nomlar o‘zbek milliy ruhini aks ettirib, qahramonning ma’naviy qiyofasini ochishga xizmat qiladi. Ba’zan yozuvchi qahramon ismiga ramziy ma’no yuklaydi. Masalan, “Bahodir”, “Botir”, “Sodiq” kabi nomlar jasorat, sadoqat kabi fazilatlarni ifodalaydi.

#### 2. Milliy kolorit yaratish

Toponim va antroponimlar orqali asarda milliy muhit va tarixiy davr tasvirlanadi. Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi joy nomlari o‘quvchida milliy tasavvur uyg‘otadi. Shuningdek, qadimiy yoki shevaga xos ismlar qo‘llanishi asarning tarixiy va hududiy ruhini kuchaytiradi.

3. Emotsional-ekspressiv ta’sirni oshirish. Onomastik birliklar matnning ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, laqablar va kinoyaviy nomlar obrazga nisbatan muallif munosabatini ifodalaydi. Masalan, salbiy qahramonga kulgili yoki istehzoli laqab qo‘yilishi satirik ruhni yuzaga chiqaradi.

4. Ramziy ma’no ifodalash. Ba’zi nomlar badiiy matnda ramziy ma’no kasb etadi. Masalan, “Nur”, “Yulduz”, “Tong” kabi birliklar umid, ezgulik va yangilanish timsoli sifatida qo‘llanishi mumkin. Bu holat yozuvchining poetik tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq.

<sup>1</sup> Altuxova O.N. Poetonymy-mediatory v makrokontekste proizvedeniya: V. Pelevina Sotsiosfera-M; 2014 -№3 c/ 50- 59

<sup>2</sup> Begmatov E. Ko‘rsatilgan asar. -b.10

<sup>3</sup> Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.

<sup>4</sup> Nikonov V. «Имя и общество». 1974.



5. Muallif uslubini shakllantirish. Har bir yozuvchi onomastik birliklardan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Ayrim adiblar tarixiy nomlarga murojaat qilsa, boshqalari ramziy yoki xalqona ismlarni tanlaydi. Bu esa muallifning individual uslubini namoyon etadi.

**Badiiy matnda antroponimlarning o‘rni.** Antroponimlar badiiy asarda eng faol va muhim qo‘llanadigan onomastik birliklardan biri hisoblanadi. Yozuvchi qahramonlarga ism tanlash orqali nafaqat ularni bir-biridan farqlaydi, balki ularning xarakteri, ichki dunyosi, ijtimoiy mavqei hamda milliy mansubligi haqida ham ma’lumot beradi. Shu sababli antroponimlar badiiy matnning mazmuniy va uslubiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim vosita sanaladi.

Avvalo, antroponimlar qahramonni individuallashtirish vazifasini bajaradi. Har bir ism muayyan obrazga xos belgilarni ifodalab, uning boshqa personajlardan ajralib turishiga xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Otabek obrazi mardlik, ziyolilik va zamonaviy fikrlash timsoli sifatida gavydalanadi. Kumush nomida esa noziklik, poklik va go‘zallik ma’nolari mujassam. Demak, yozuvchi ism tanlashda uning semantik va estetik imkoniyatlaridan unumli foydalanadi.

Shuningdek, antroponimlar asarda milliylik va tarixiylikni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy ruhni aks ettiruvchi ismlar o‘quvchida muayyan xalqning madaniy muhiti haqida tasavvur uyg‘otadi. Masalan, Alisher, Jaloliddin, Temur, Bobur kabi nomlar o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini bilan chambarchas bog‘liq. Tarixiy asarlarda Amir Temur yoki Zahiriddin Muhammad Bobur kabi antroponimlarning qo‘llanishi tarixiy haqiqatni tiklash, asarning ishonchliligini oshirish hamda kitobxonni ma’lum davr ruhiga olib kirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, antroponimlar obrazning ijtimoiy mavqeini va yashash muhitini ham ko‘rsatadi. Ayrim ismlar orqali qahramonning qaysi tabaqaga mansubligi, diniy qarashi yoki madaniy saviyasi sezilib turadi. Masalan, “bek”, “xo‘ja”, “boy”, “mirzo” kabi qo‘shimchalar tarixiy davrlarda kishining jamiyatdagi mavqeini bildirgan. Shu jihatdan antroponimlar badiiy matnda ijtimoiy-estetik vazifani ham bajaradi.

Yozuvchilar ayrim hollarda antroponimlarga ramziy ma’no yuklaydi. Masalan, “Sodiq”, “Bahodir”, “Dilbar”, “Umid” kabi ismlar qahramon xarakteridagi asosiy xususiyatlarni oldindan anglatib turadi. Bu esa kitobxonning obraz haqidagi dastlabki tasavvurini shakllantiradi va badiiy ta’sirchanlikni oshiradi.



**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda onomastik birliklar muallifning badiiy maqsadini amalga oshiruvchi muhim lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Antroponim, toponim, zoonim va boshqa nom birliklari orqali yozuvchi qahramon xarakterini ochadi, voqea sodir bo'layotgan muhitni tasvirlaydi hamda asarning milliy va tarixiy ruhini ifodalaydi. Ayniqsa, antroponimlar obrazni individuallashtirish, uning ichki dunyosi va ijtimoiy mavqeini ko'rsatishda katta ahamiyat kasb etadi. Toponimlar esa badiiy matnda tarixiylik va milliy koloritni yuzaga chiqarib, o'quvchining tasavvurini boyitadi. Ramziy va emotsional ma'noga ega bo'lgan nom birliklari matnning estetik ta'sirchanligini kuchaytirib, muallifning individual uslubini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, onomastik birliklar badiiy asarning mazmuniy va uslubiy yaxlitligini ta'minlovchi muhim vosita bo'lib, ularni lingvistik hamda lingvopoetik jihatdan o'rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun dolzarb masalalardan biri sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Altuxova O.N. Poetonimy-mediatory v makrokontekste proizvedeniye: V.Pelevina Sotsiosfera-M; 2014 -№3 c/ 50- 59
2. Begmatov E. Ko'rsatilgan asar.-b.10
3. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Nikonov V. «Имя и общество». 1974.